



**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASHNING EPISTEMOLOGIK TAHLILI**

Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi
“University of economics and pedagogy”
NOTM, katta o'qituvchisi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15256092>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarga faoliyati davomida epistemologik tahlildan foydalanish haqida tavsiyalar berilgan. Hamda o'qituvchilarga ko'plab tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Epistemologiya, uzluksiz ta'lim, tarbiya, tarbiyachi, innovatsiya, muammoli tahlil, metod.

Mamalakatimizda uzluksiz ta'lim sohasida olib borilayotgan keng islohotlar har bir yo'nalishni, ha bir mutaxassislikni chetlab o'tmayotganligiga bugun guvoh bo'lmoqdamizki, biz faoliyat olib borayotgan maktabgacha ta'lim yo'nalishiga yangi innovatsiyalarni joriy etilishi fikrimizning yorqin dalilidir. Biz bugun bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangi innovatsiyalarni amaliyotga tadbiiq qilish usullarini aynan epistemologik yondashuvdan foydalangan holatda o'rgatmoqlikni maqsad qilib oldik. Yangi innovatsiyalarni talabalarga o'rgatishdan maqsad, mutaxassisligining fundamental asoslarini yetarli darajada o'qitish, bu nazariy bilimlarni pedagogik, psixologik, falsafiy jarayonlarining innovatsion faoliyat ko'rinishida ifodalanadigan pedagogik modellarini o'rganish, tahlil qilishdir. Ayni vaqtda bu talabalarni mantiqiy fikrlashga, to'g'ri xulosa chiqarishga, pedagogik madaniyatni oshirishga xizmat qiladi. Talabalarni mantiqiy fikrlashga, nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita tadbiiq qilish, to'g'ri xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatish, hamda ko'nikma va malakalarni berishdan iborat.

Maqsadimizdan kelib chiqqan holda quyidagi muhim vazifani oldimizga qo'ydik, yangi innovatsiyalarning zamonaviy metodlari va asosiy prinsiplarini talabalar ongiga singdirish. Fan va ta'limda, tarbiya jarayonida, umuman pedagogik faoliyning barcha tarmoqlarida uchraydigan muhim amaliy muammolarni hal etishda epistemologik jihatdan tahlil qilish mexanizimini o'rgatishdan iborat.

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiiq etish bir necha bosqichlarda kechadi.

Ular quyidagilardir:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Shuningdek, o'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, O'qitish metodlarida, dars shakli, O'qitish turlari, O'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin. - ta'lim mazmuniga innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy O'qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi:

O'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko'ramiz. Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faoligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izoxlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (tarbiyachi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi;

- dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda virtual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin;

- O'qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta'lim, evristik ta'lim, darajalangan ta'lim, integratsiyalangan ta'lim, interfaol ta'lim, informal ta'lim, rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim turlari bilan izoxlanadi;



• O'qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz;

Zero, O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin;

1. Aktiv metod. Bu metod talaba-yoshlarni dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-mulohaza yuritishga undaydi.
2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi.
3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qtuvchi va talabalarni birgalikdagi faol hatti-harakatlariga asoslanadi.

- Dars shaklida innovatsiya quyidagi shakilda ko'rishimiz mumkin;

- a) Standart dars -dars ichidagi struktura o'zgarmaydi
- b) Nostandart dars -dars ichidagi struktura o'zgaradi.
- v) Vertual dars - yani masofadan o'qitish.

Biz talabalarga mutaxassisligi yuzasida o'rganayotgan bilimlarini amaliy texnologiyalarini epistemologik yondashuv asosiga qurishga quyidagi usulimizni na'muna sifatida keltirishimiz mumkinki, bunda talaba, bilimlarini mustahkamlash va darslarni qiziqarli qilish uchun samarali vosita sifatida tanlay oladi.

"Baliq ovi" o'yini

Talabalar oldindan tayyorlab olingan dengizdagi baliqlardan birini tanlab, orqa qismiga yozilgan savollarga javob beradi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, baliq akvariumga qo'yiladi; noto'g'ri javob berilgan taqdirda, baliq dengizga qaytariladi.

Mazkur metoddan quyidagi holatlarda foydalaniladi

— Savol-javob faoliyatida: talabalarga mavzu bo'yicha savollar berilib, to'g'ri javoblar akvariumga baliq sifatida qo'yiladi. Bu usul talabalarining bilimlarini mustahkamlash va mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

— Mavzularni takrorlashda: talabalarining oldingi darslarda O'rgangan bilimlarini qayta ko'rib chiqish va mustahkamlash uchun "Baliq ovi" O'yini samarali vosita.

— Guruh ishlarida: talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga o'z savollarini tayyorlash va boshqa guruhlar bilan almashish orqali o'yinni tashkil etish mumkin. Bu usul hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Baliq ovi" o'yini ta'lim oluvchilarning diqqatini jamlash, bilimlarini mustahkamlash va darslarni qiziqarli qilish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, darsga samara va natija beruvchi yana bir innovatsion faoliyatimiz Neyrogimnastika deb nomlanib, bu ta'lim oluvchilarda — sensomotorikani rivojlantirishga, miyaning o'sish va rivojlanishiga ko'maklashuvchi juda foydali metod bo'lib, psixologik va kognitiv funksiyalarning rivojlanishiga ham ko'maklashadi.

Zero, neyrogimnastika

- Miya funksiyalarini yaxshilaydi;
- Diqqat, xotira va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- Koordinatsiyani oshiradi;
- Miya yarim sharlarining muvozanatini mustahkamlaydi;

Mazkur metodni biz darsni tashkil qilishda, ya'ni, mavzuni boshlashdan avval qo'llashimiz mumkin, talabalarni mavzuga to'g'ri baholashlari uchun xizmat qiladi. Biz talabalarga quyidagi fikrlarimizni tavsiya sifatida keltirishimiz ham ta'lim jarayoniga olib kirgan kichik bir innovatsion faoliyatimiz desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2011.
2. Vigotskiy L. S. Voobrajenie i tvorchestvo v detskom vozraste. –Moskva: Prosveshenie, 1991; Vo'gotskiy L. S. Mishlenie i rech. –Moskva: Pedagogika, 2012.



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel
2025-yil



3. Tixomirov O. K. Psixologiya mishleniya. – Moskva: MGU, 2015.

4. ALAVUTDINOVA GANIEVNA, N. (2015). 20. Asir o'zbek dilbiliminde morfolojiye ait gorushlerin shakillenmesinde prof. Eyyup gulamov'un yeri. Turkish Studies (Elektronik), 10(12), 1-14.

5. Saydullayeva, G. (2025). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING INTELLEKTUAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI. B YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (T. 3, Выпуск 1, сс. 57–58). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14771658>